

## Oriental Journal of Education



### THE SOCIAL FORM OF A LESSON: OPPORTUNITIES AND LIMITATIONS OF FRONTAL TEACHING

*Madina Malikova*

*PhD Applicant, CHSPU*

*Tashkent, Uzbekistan*

#### ABOUT ARTICLE

**Key words:** frontal teaching, cooperative learning technologies, advantages, disadvantages.

**Received:** 19.11.25

**Accepted:** 20.11.25

**Published:** 21.11.25

**Abstract:** In the article, the views of several researchers regarding frontal teaching are presented, along with a detailed discussion of the ways in which this method can be applied, its potential advantages, and its inherent limitations. In addition, the practical implementation of frontal instruction — including working in groups, working in pairs, solving problem-based situations, the project method, and other approaches — is also examined.

### DARSNING IJTIMOYIY SHAKLI: FRONTAL TA'LIMNING IMKONIYATLARI VA KAMCHILIKLARI

*Madina Malikova*

*CHDPU tayanch doktoranti*

*Toshkent, O'zbekiston*

#### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so'zlar:** frontal ta'lim, hamkorlikdagi ta'lim texnologiyalari, afzalliklar, kamchiliklar.

**Annotatsiya:** Maqolada bir qator izlanuvchilarning frontal o'qitish bobidagi fikrlari, qolaversa, uni qay tatriqa frontal o'qitishning imkoniyatlari ham, va o'z o'rnida, kamchiliklari ham atroflicha bayon etiladi. Bundan tashqari, frontal ta'limning amaliy qo'llanilishi (guruhda ishlash, juftlikda ishlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, loyiha metodi va boshqalar bilan birga) ham yoritilishga harakat qilinadi.

### СОЦИАЛЬНАЯ ФОРМА УРОКА: ВОЗМОЖНОСТИ И НЕДОСТАТКИ ФРОНТАЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ

*Мадина Маликова*

*Базовый докторант ЧГПУ*

*Ташкент, Узбекистан*

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** фронтальное обучение, технологии сотрудничества в обучении, преимущества, недостатки.

**Аннотация:** В статье изложены мнения ряда исследователей о фронтальном обучении, а также подробно рассматриваются способы его применения, возможности данного метода и, в то же время, его недостатки. Кроме того, в материале освещается практическое использование фронтального обучения — работа в группах, работа в парах, решение проблемных ситуаций, проектный метод и другие подходы.

---

**Kirish.** Avvalo, frontal o‘qitish (nem. Frontalunterricht) tushunchasiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, u ta‘lim jarayonida o‘qituvchi markaziy shaxs sifatida faoliyat yuritadigan, butun sinf bir vaqtning o‘zida yagona topshiriqlarni bajaradigan ijtimoiy shakl sanaladi. Ushbu shakl dars amaliyotida uzoq yillar davomida asosiy metod sifatida qo‘llanib kelgan.

Mazkur yondashuv bo‘yicha ilmiy adabiyotlar tahlili shuni ko‘rsatadiki, frontal o‘qitishning nazariy va amaliy jihatlari haqida J. Dewey, H. Meyer, T. Seidel, R. J. Shavelson, M. Kunter, J. Baumert, S. Kraus, V. Blum, U. Klusman, M. Neuberand, A. Helmke, J. Hattie kabi olimlar o‘z fikr va mulohazalarini bildirganlar.

Xususan, avstraliyalik olim John Hattie o‘zining “Visible Learning” (“ko‘rinadigan o‘qitish”) nomli asarida o‘qituvchining faol roli, dars maqsadlarini aniq belgilash hamda ta‘lim jarayonida shaffoflikni ta‘minlash zarurligini ta‘kidlaydi. U frontal o‘qitishni “visible teaching” deb atab, shunday deydi:

“Frontal o‘qitish samarali bo‘lishi uchun o‘qituvchi aniq maqsad qo‘yishi, teskari aloqa (feedback) tizimini yo‘lga qo‘yishi hamda o‘quvchilarni faol ishtirok ettirishi zarur. O‘qituvchi jarayon markazida tursa-da, o‘quvchilarni kuzatish va baholash orqali o‘qitishni boshqaradi.”

Nemis tadqiqotchisi M. Kunter esa frontal o‘qitishning samaradorligini oshirish yo‘lida olib borgan izlanishlarida quyidagi fikrni ilgari suradi:

“Frontal ta‘limda pedagog markaziy figura sifatida ishtirok etsa ham, u har bir o‘quvchiga individual e‘tibor berishi va ularni qo‘llab-quvvatlashi lozim. Aks holda, bunday darslar o‘quvchilarning sust faolligiga sabab bo‘ladi.”

Demak, o‘qituvchi markaziy rolni egallagan holatlarda ham o‘quvchilarning ichki motivatsiyasini rag‘batlantirish orqali frontal o‘qitishni yanada samarali qilish mumkin.

Frontal o‘qitishning amaliy qo‘llanilishi.

Mamlakatimiz ta‘lim tizimida, xususan, umumiy o‘rta ta‘lim maktablari va oliy ta‘lim muassasalarida ham frontal o‘qitish shakli keng tarqalgan. Ayniqsa, ma‘ruza (leksiya) ko‘rinishidagi darslar bu yondashuvning yaqqol misolidir.

Frontal o‘qitishda o‘qituvchi ta’lim jarayonini tashkil etadi, boshqaradi va nazorat qiladi, ma’lumotni esa bir tomonlama shaklda yetkazadi. Natijada barcha o‘quvchilar bir xil materialni bir vaqtda o‘zlashtiradilar. Bu esa o‘qituvchiga hamma uchun teng bilim berish imkonini yaratadi.

Frontal o‘qitish ta’lim jarayonining eng keng tarqalgan shakllaridan biri bo‘lib, o‘qituvchining butun sinf bilan bir vaqtda ishlashiga asoslanadi. Ushbu yondashuvning bir qator ijobiy jihatlari mavjud bo‘lib, ular ta’lim jarayonini samarali tashkil etishga xizmat qiladi. Avvalo, frontal o‘qitish darsning aniq tartibda olib borilishini, mavzuning izchil va tizimli bayon etilishini ta’minlaydi.

O‘qituvchi yangi bilimni lo‘nda, umumlashtirilgan, barcha o‘quvchilar uchun teng darajada tushunarli shaklda yetkazadi, bu esa o‘quv jarayonida bir xillik va standartlashtirilgan yondashuvni yuzaga keltiradi. Shuningdek, frontal o‘qitish vaqtini tejamkorlik bilan boshqarish imkonini beradi. O‘qituvchi murakkab mavzularni bir marotaba tushuntirib, ko‘p sonli o‘quvchilarga bir vaqtning o‘zida ma’lumot bera oladi, bu esa darsning samaradorligini oshiradi.

### 1-rasm. Frontal o‘qitishning afzalliklari

<p>1. Ko‘p sonli o‘quvchilarni bir vaqtning o‘zida boshqarish imkoniyati. Guruh yoki juftlikda ishlashdan farqli o‘laroq, frontal shaklda o‘qituvchi butun sinfning e’tiborini bir markazda jamlay oladi.</p>
<p>2. Intizom va shaffoflikni ta’minlash. O‘qituvchining nutqi, ovoz ohangi, yuz ifodalari o‘quvchilarga psixologik ta’sir o‘tkazadi. Bu esa dars intizomini mustahkamlaydi va o‘quvchilarda mas’uliyat, hurmat va tartibni shakllantiradi.</p>
<p>3. Katta hajmdagi ma’lumotni qisqa vaqt ichida yetkazish. Frontal usul o‘qituvchiga belgilangan vaqt ichida DTS (Davlat ta’lim standarti) talablari asosida materialni to‘liq bayon etish imkonini beradi.</p>

Amerikalik tadqiqotchilar A. L. Archer va Ch. A. Hughes frontal o‘qitishni “to‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’lim” (explicit instruction) deb atab, uni quyidagicha izohlaydilar:

“To‘g‘ridan-to‘g‘ri ta’limda o‘qituvchi tomonidan aniq, rejalashtirilgan va izchil tushuntirish jarayoni markaziy o‘rin tutadi. Bu usul o‘quvchilarda asosiy ko‘nikmalarni shakllantirish va ularni mustaqil ishlashga tayyorlashda muhim ahamiyatga ega.”

Shu bilan birga, yevropalik metodist olim W. Klafki frontal o‘qitishning demokratik ta’lim tizimidagi o‘rniga to‘xtalib, bu shakl orqali barcha o‘quvchilarga teng boshlang‘ich ma’lumot berilishi, hech kimning e’tibordan chetda qolmasligi va sinfdagi umumiy fikriy yo‘nalish shakllanishini alohida ta’kidlaydi. Germaniyalik pedagogik tadqiqotchi H. Gudjons esa frontal ta’limni “asosiy tushunchalarni yagona didaktik asosda shakllantirishga xizmat qiluvchi, lekin

keyingi bosqichlarda dialogik metodlar bilan boyitilishi zarur bo'lgan didaktik model" sifatida tasvirlaydi.

AQShdagi zamonaviy pedagogika nazariyotchilaridan biri R. Gagné frontal ta'limni o'quv jarayonining kirish bosqichida eng maqbul variant deb hisoblaydi, chunki u o'quvchilarda bilimni qabul qilishga tayyorgarlik, umumiy orientatsiya va mavzu bo'yicha dastlabki tasavvurni shakllantiradi. Shu sababli frontal o'qitish ko'pincha boshqa metodlar bilan birgalikda qo'llanilganda yanada samaraliroq bo'lishi qayd etiladi.

Biroq chet el olimlarining ayrimlari frontal o'qitishga tanqidiy yondashishadi. Masalan, konstruktivizm tarafdorlari J. Piaget va D. Jon Dewey frontal yondashuvning passiv o'qishga moyillik tug'dirishi mumkinligini, o'quvchining mustaqil izlanish va faol ishtirokini cheklashi ehtimolini eslatadilar. Shunga qaramay, ular frontal o'qitishni butunlay rad etmay, balki uni interfaol yondashuvlar, muammoli ta'lim va hamkorlikda o'qitish shakllari bilan integratsiya qilgan holda qo'llashni tavsiya etadilar.

Frontal o'qitishning kamchiliklari. Boshqa har qanday metod singari, frontal o'qitish ham cheklovlardan xoli emas. Tadqiqotlar asosida uning uchta asosiy kamchiligi ajratib ko'rsatiladi:

### 2-rasm. Frontal o'qitishning kamchiliklari

1. O'quvchilarning faolligi va mustaqil fikrlashining chegaralanishi. O'qituvchi markazda bo'lgani uchun o'quvchilar ko'proq tinglovchi rolida bo'ladilar. J. Dewey bu holatni tanqid qilib, bunday yondashuv o'quvchining individual salohiyatini cheklaydi, deb ta'kidlagan.
2. Individual yondashuv imkoniyatining kamayishi. Ayniqsa, yuqori sinflarda o'quvchilarning shaxsiy fikrlash va mustaqil qaror qabul qilish ehtiyoji kuchaygan bir paytda, frontal usul bu jarayonni to'liq ta'minlay olmaydi.
3. Ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun imkoniyatning yo'qligi. Frontal darslarda o'quvchilar o'zaro muloqot qilmagani sababli, ular jamoaviy ishlash, muloqot va hamkorlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkonidan mahrum bo'ladilar.

Frontal o'qitishni guruhli, juftlikda va individual ishlash bilan to'g'ri qo'shib olib borish darsning samaradorligini bir necha baravar oshiradi. Avvalo, frontal o'qitishda yangi mavzu butun sinfga yaxlit tarzda tushuntiriladi, asosiy nazariy tushunchalar beriladi. Shundan so'ng o'quvchilarni kichik guruhlarga ajratish orqali mavzuni chuqurroq anglash imkoniyati yaratiladi. Guruhli ish jarayonida ular bir-birlari bilan fikr almashadilar, muammoli vaziyatlarni hal etadilar, ijodiy yondashuvni namoyon qiladilar. Bu esa o'quvchilarning ijtimoiy faoliyatini kuchaytirib, hamkorlikda ishlash madaniyatini shakllantiradi. Frontal o'qitishdan keyingi yana bir muhim bosqich — juftlikda ishlashdir. Juftliklarda o'quvchilar bir-biriga savol berib, mashqlarni birgalikda bajaradilar, shu orqali bilimlarni tezkor ravishda mustahkamlaydilar. Bu shakl har bir o'quvchining

darsdagi ishtirokini ta'minlab, ular o'rtasida muloqotni jonlantiradi va o'zaro yordam madaniyatini rivojlantiradi.

Shuningdek, frontal yondashuvni individual topshiriqlar bilan uyg'unlashtirish ham muhim o'rin tutadi. O'quvchilarga mustaqil bajariladigan mashqlar berilishi ularning shaxsiy qobiliyati va o'zlashtirish darajasiga mos ravishda ishlash imkonini yaratadi. Bu jarayon har bir o'quvchining individual fikrlashini rivojlantirib, mas'uliyat hissini kuchaytiradi. Ta'lim jarayonini yanada jonlantirish uchun o'yin elementlari, interfaol metodlar, debat va kichik tadqiqotlar kabi usullarni frontal dars bilan integratsiya qilish ham o'quvchilarni faollikka chorlaydi. Shu tariqa frontal o'qitishni boshqa ijtimoiy shakllar bilan uyg'unlashtirish darsni sermazmun, qiziqarli va samarali qiladi.

O'quvchilarning bilimlarni nafaqat eshitish, balki o'zaro fikr almashish, tahlil qilish va mustaqil amaliyot orqali o'zlashtirishiga imkon yaratadi. Natijada dars jarayoni bir tomonlama emas, balki o'quvchi faol ishtirok etadigan, zamonaviy talablarga mos, dinamik va interfaol jarayonga aylanadi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlab o'tish joizki, frontal o'qitish – uzoq yillardan beri o'z samaradorligini isbotlagan an'anaviy ta'lim shakli bo'lib, ma'lumotni tartibli, bir vaqtning o'zida va tizimli tarzda yetkazish imkonini beradi. Yillar davomida frontal ta'lim umumjahon ta'lim tizimining asosiy ko'rinishi bo'lib xizmat qilib kelmoqda. Zamonaviy ta'lim dasturida interfaol metodlar va turli yangicha yondashuvlar paydo bo'lgan bo'lsada darsning ushbu ijtimoiy shakli hamon o'z ustunligini saqlab turibdi. Bunga sabab esa uning biz yuqorida bayon qiladigan qator afzalliklaridir. Biroq, zamonaviy ta'limning maqsadi – mustaqil fikrlovchi, ijodkor va ijtimoiy faol shaxsni shakllantirish bo'lgani uchun, faqat frontal o'qitishga tayanish yetarli emas. Ushbu frontal ta'limning kamchiliklari ham borki, bu borada uni boshqa turdagi ta'lim shakllaridan foydalanib to'ldirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu boisdan, frontal o'qitish interaktiv va faol o'qitish uslublari (guruhda ishlash, juftlikda ishlash, muammoli vaziyatlarni hal etish, loyiha metodi va boshqalar) bilan uyg'unlashtirilgan holda qo'llanilishi lozim.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :**

- 1.Archer A. L.; Hughes C. A. Explicit Instruction: Effective and Efficient Teaching. — New York: Guilford Publications, 2017. D
- 2.Dewey J. Democracy and Education. Second edition. New York: Macmillan, 2016. pp. 220
- 3.Meyer H. Was ist guter Unterricht?. Berlin: Cornelsen, 2010. p. 176
- 4.Seidel T., & Shavelson, R. J. Teaching effectiveness research in the past decade: The role of theory and research design in disentangling meta-analysis results. Review of Educational Research, 83(4), 2013. pp. 596–642.

5.Smith J., Brown L., & Wilson R. Collaborative learning in large classrooms: Challenges and strategies. *Journal of Contemporary Education*, 15(2), 2023. p.112–130